

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (17)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Sirojov Bahodir Nishon o'g'li THE SPECIFIC FEATURES OF THE MONETARY REFORM IMPLEMENTED BY ABDULLAH KHAN II	4
2	Суярова Феруза Собир кизи ЎЗБЕКИСТОНДА АМАЛИЙ САНЪАТ ВА ХУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ ТИКЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ҲУҚУҚИЙ-МЕЪЁРИЙ АСОСЛАРИ	9
3	Тухтабеков Козимбек Азимбекович ШАЙБОНИЙХОН ДАВРИ МЕЪМОРЧИЛИГИ: САМАРҚАНДДАГИ МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОН МАДРАСАСИ (МАДРАСА-ЙИ ОЛИЯ) ТАРИХИ	17
4	Тухтабеков Козимбек Азимбекович ШАЙБОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	27
5	Узаков Бахром Нигматович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВРИДА ҚАШҚАДАРЁДА КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	36
6	Xayitov Zafar Uzakovich MENANDRNING “TARIX” ASARI ILK VIZANTIYA DIPLOMATIYASI BO‘YICHA MANBA SIFATIDA	45
7	Shaydullayeva Guljahon Shapulatovna., Rahmonqulova Zumrad Boyxurazovna OKSNING ENEOLIT VA BRONZA DAVRI TABIIY SHAROITI VA IQLIM O‘ZGARISHLARI	53
8	Шакиров Ильяс Рахимзянович ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВЬЕТНАМСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ: ОТ КИТАЙСКОГО ВЛИЯНИЯ ДО НЕЗАВИСИМОСТИ	61
9	Eralov Azamat Jomurodovich O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANISHIDA BUXORO ETNOTURIZMINING ANAMIYATI	68
10	Эргашева Юлдуз Алимовна ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	74
11	Eshtemirov Jasurbek Suyunkulovich INTRODUCTION OF NEW RULES AND CHANGES IN THE ADMINISTRATIVE AND POLITICAL MANAGEMENT OF THE CITY OF KARSHI UNDER THE SUBORDINATION OF THE BUKHARA EMIRATE TO THE RUSSIAN EMPIRE	81
12	Эштемиров Жасурбек Суюнкулович ПОРЯДОК СБОРА НАЛОГОВ И ПОДАТЕЙ В ГОРОДЕ КАРШИ В ПОСЛЕДНИЙ ПЕРИОД СУЩЕСТВОВАНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (1900–1920 ГГ.)	88
13	Эшқувватов Бобир Валикул ўғли МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХРИСТИАН КОНФЕССИЯЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УЛАРНИНГ ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ	97

Shaydullayeva Guljahon Shapulatovna

«Arxivshunoslik va manbashunoslik» kafedrası dotsenti, PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

shaydullayeva87@list.ru

Rahmonqulova Zumrad Boyxurazovna

«Arxivshunoslik va manbashunoslik» kafedrası professori, PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

zumradrahmankulova@gmail.com

OKSNING ENEOLIT VA BRONZA DAVRI TABIIY SHAROITI VA IQLIM O'ZGARISHLARI

ANNOTASIYA

Maqolada Oksning eneolit va bronza davrlaridagi tabiiy sharoiti hamda iqlim o'zgarishlari paleoekologik, geomorfologik va iqlimshunoslik tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Muallif Yevroosiyo miqyosida kechgan global iqlim jarayonlari, xususan golosen davridagi namlik va qurg'oqchilik sikllari Oks va janubiy Markaziy Osiyo hududlarining tabiiy muhitiga qanday ta'sir ko'rsatganini yoritadi. Tadqiqotda Murg'ob, Zarafshon va Balx daryolari havzasidagi gidrologik o'zgarishlar, voha sivilizatsiyalari rivoji hamda aholi manzilgohlarining dinamikasi iqlim omillari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Oks sivilizatsiyasi misolida qurg'oqchil iqlim sharoitida agrar va ko'chmanchi xo'jalik shakllarining rivojlanishi tahlil qilinadi. Muallif iqlim, atrof-muhit va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks yondashuv asosida baholab, iqlim o'zgarishlarining jamiyat rivojiga ta'siri doimo inqirozga emas, balki moslashuv va transformatsiya jarayonlariga ham olib kelishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: Oks, eneolit davri, bronza davri, paleoiqlim, iqlim o'zgarishlari, golosen, qurg'oqchilik, namlik dinamikasi, paleoekologiya, geomorfologiya, gidrologik tizimlar, Murg'ob vohasi, Oks sivilizatsiyasi.

KIRISH

Eneolit va bronza davrlarida tabiiy muhit hamda iqlim o'zgarishlari qadimgi sivilizatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Oks (Baqtriya–Marg'iyona) sivilizatsiyasining taraqqiyotida gidrologik tizimlar, tabiiy-geografik sharoit va iqlim omillari muhim o'rin tutgan. So'nggi yillarda paleoekologik, paleoklimatologik va arxeologik tadqiqotlar ushbu hududdagi iqlim dinamikasi hamda uning xo'jalik, aholi joylashuvi va madaniy jarayonlarga ta'sirini yangi ilmiy ma'lumotlar asosida yoritmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi Oks hududining eneolit va bronza davrlaridagi tabiiy sharoiti hamda iqlim o'zgarishlarini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilish va ularning sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rnini baholashdan iborat.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Odatda ma'lum bir mintaqaning tabiiy sharoiti va iqlim o'zgarishi jarayonlari keng yoki kichik geografik hududlar misolida o'rganiladi. Jahon iqlimshunos olimlari bir qator tarixiy hududlarda, jumladan, qadimgi Akkad, Hind, Mayya sivilizatsiyalari bo'yicha paleoekologik izlanishlar olib borishgan va iqlim omili sivilizatsiyalarning shakllanishi, rivoji va zavolida katta o'rin tutishini aniqlashgan.

So'nggi yillarda Yevroosiyo mintaqasining qadimgi paleoiqlim sharoitini o'rganish bo'yicha ham salmoqli tadqiqotlar o'tkazildi. Paleoekolog F.Chen rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda Kaspiy dengizidan Mo'g'ulistongacha bo'lgan keng mintaqadagi issiq, qurg'oqchil iqlim sharoiti barobar, Okc hududida kechgan paleoekologik jarayonlar ham ochib berildi. Ilk golosen davridagi mo'tadil iqlimning nam havoli iqlim bilan almashish jarayonlari (mil.av. 6000 yillar), o'rta va kechki golosen davrida esa namlikning kamayishi hamda quruq havoli mintaqaga aylanish holatlari kuzatilgan (mil.av. 6000-2000 yillar) [9, 351–364] Yevroosiyodagi bu iqlim o'zgarishlari Okc yozgi mussoniga ham ta'sir qilgan, albatta [20, 135–153].

Bu tadqiqotga ko'ra Okcdagi global quriq havo mil.av. 2200-1750 yillar atrofida sodir bo'lgan ko'rinadi. Ushbu “mega qurg'oqchilik” O'rta yer dengizi bo'ylab, g'arbdan sharqqa va G'arbiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Afrika va umuman yer kurrasining g'arbiy yarim shar qismida yog'ingarchilik va namlik 30-50 foizgacha qisqarganligini ko'rsatgan [19, pp 13].

Markaziy Osiyo paleoiqlimi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda alp va subalp hududlari orqali atmosfera sirkulyatsiyasi va baland tog'li muhit o'rtasidagi munosabatlar o'rganilgan [1, 977–985]. Ushbu tadqiqotlar musson ta'sirining pasayishi va g'arbiy hududlarning ob-havo hukmronligi, unda o'rta golotsenning ikkinchi yarmida qurg'oqchil sharoitlar hozirgi paytda hukm surayotgan tabiiy sharoitga yaqinligini ko'rsatgan. Tojikistonning “Qorako'l” nomli ko'lida olib borilgan paleoekologik izlanishlar, so'nggi galosen davrida suv sathining kamayganligidan, iqlimning quruqlashganligidan dalolat bersa, yuqori cho'qqili tog'larda muzliklarning erishi natijasida yuzaga keladigan yuqori suv sathi issiq iqlim sharoitini ko'rsatadi. Mil.av. 3500-1600 yillarda namgarchilik va suv sathining pastligi qayta tiklanadi [18, 10–24]. Shu bilan bir qatorda, Qirg'izistondagi “Kichikko'l” subalp ko'lida suv o'simliklari dunyosini o'rganish suv sathining ko'tarilishini, ya'ni namlikning tobora ortib borganligini tasdiqlaydi. Bu ham Markaziy Osiyo va Hindistonda musson tizimlarining zaiflashishi va O'rta yer dengizi mintaqasidan nam havo oqimining kuchayishi deb talqin qilinadi. Mil.av. II ming yillikda esa qarama-qarshi hodisalar yuz berganligi aniqlangan, ya'ni suv sathining ko'tarilishi hodisasi kuzatilgan.

Aksincha, germaniyalik va amerikalik olimlar mil.av. III-II ming yilliklar boshida yuz bergan ekologik o'zgarishlar g'oyasigi qo'shilmaydi [15, 467–491]. Ularning ta'kidlashicha, suv ta'minoti bilan bog'liq atrof-muhit dinamikasi iqlim va suv masalasi bilan chegaralanmagan, balki geomorfologik va geologik hodisalar kabi bir qancha omillarning kombinatsiyasi bo'lishi mumkin deya izohlashadi.

Jahon iqlimshunoslik fanida qadimgi Eron va Okcning eneolit va bronza davrida kechgan global iqlim o'zgarishi haqidagi gipoteza ham keng muhokama

qilinmoqda. Ilmiy jamoatchilik tomonidan mintaqaning iqlim tizimining o'zgaruvchanligi, uning ijtimoiy-madaniy holatlarga ta'siri yoki insonning tabiatga ta'siri haqidagi masalalar qizg'in muhokamaga sabab bo'lmoqda [8, 187–203]. Ko'pgina olimlar ekologik o'zgarishlar ham ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi yoki hech bo'lmaganda jamiyatdagi ichki keskinliklarni rivojlantirishi mumkin degan g'oyani ilgari suradilar. Aniqrog'i, iqlimiy sabablar o'tmishdagi jamiyatlar va madaniy jarayonlarning yo'q bo'lib ketishida, mavjud jamiyatlarning iqlim o'zgarishlariga chidamli yoki zaifligini ochib beradigan asosiy omil deb hisoblaydilar [6, 667–673].

Fikrimizcha, iqlim, atrof-muhit va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlik va iqlim o'zgarishlarining insoniyat harakatlariga, xalqlarning buyuk ko'chishlariga ta'siri masalasi fanda ochiq va oydin yoritilib berilmagan, aniqroq aytganda ekologiya hamda antropologiya muammolarini birga o'rganish, inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalarini aniqroq yoritadi [5, 113[51], 14483–14491].

Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, O'kda iqlim sharoit mil.av. 6950 va 1950 yillar oralig'ida namroq bo'lgan[21, 32–44]. Keyin iqlimning keskin quruqlashishi, mil.av. 1950–1750 yillar atrofida sodir bo'lib, muhim ekologik o'zgarishlarni keltirib chiqargan va bu jarayon mahalliy aholi jamoalariga ta'sir qilgan. Bu hodisalar Turkmanistonning Murg'ob vohasi gidravlik tizimining o'zgarishi misolida kuzatilgan. U yerda vaqt o'tishi mobaynida kanal tarmoqlarining distal qismining cho'llanishi natijasida vohadagi manzilgohlarning krizisi kuzatilgan [14, pp. 15–25]. Bir tomondan Murg'ob daryosi suvlarining kamayib borishi, ikkinchi tomondan, shimoliy shamollar natijasida Qoraqum cho'lida doimiy qum ko'chishi hodisalari yuzaga kelgan. Qurg'oqchilik jarayoni natijasida daryolar o'z oqimini o'zgartirgan, vohada suv ta'minoti keskin kamaygan, qishloq xo'jaligi yerlari salohiyati pasaygan. Murg'obda aholi zichligining kamayishiga olib keladigan demografik bosim yuzaga kelgan, manzilgohlarining ommaviy tashlab ketilishi kuzatilgan, aholining ko'chish jarayoni yuz bergan [16, 194–220].

Paleoekologik tadqiqotlar Eronning janubi-sharqiy qismlarida, ya'ni dengiz iqlimi ta'sir etib turadigan Kaspiy bo'ylarida ham o'tkazilgan. Natijada, mil.av. 3000 va 2300 yillar oralig'ida iqlimning quruqlashib borganligini ko'rsatgan. (13, 93–103) Nihoyat, ko'chmanchi chorvador xalqlarning asosiy makoni bo'lgan g'arbiy Sibirning janubiy chegaralarida va Qozog'istondan olingan periferik ma'lumotlar mil.av. 2500 va 1600 yillar oralig'ida mintaqada quruq kontinental iqlim barqaror bo'lganligini ko'rsatgan [14, pp. 351–370].

Iqlim masalasi O'ks sivilizatsiyasi misolida ham yaxshi o'rganilgan. U O'kning janubiy va Eronning shimoli-sharqiy qismini, taxminan, Orol dengizi havzasi va Eron platosidagi Dashti Kavir cho'li oralig'ida joylashgan va dunyodagi eng qurg'oqchil hududlardan biri hisoblanadi [2, 970–984]. U cho'l iqlim zonalariga tegishli bo'lib, yarim qurg'oqchil iqlimga ega, kuzning oxiridan bahorning o'rtalarigacha nisbatan yog'ingarchilikning kamligi va yilning qolgan qismida quyosh va yuqori haroratning maksimal ta'siri bilan tavsiflanadi. Bu hududning asosiy qismida yiliga 400 mm.dan kam yog'ingarchilik kuzatiladi [7,3–24].

Qurg'oqchilikka qaramay, janubiy Markaziy Osiyo neolit davridan boshlab agroko'chmanchi xo'jalikka asoslangan va uzoq tarixga ega, bu albatta suv xo'jaligi bilan bog'liq. Aholining katta qismi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qulayroq bo'lgan daryo bo'ylarida yoki tog' etaklarida yashagan, tog'li hududlarda iqlim sharoiti chorvachilik va lalmi dehqonchilik uchun yetarli va qulay bo'lgan [11, 59–75]. Demak, mil.av. III ming yillik oxiridagi iqlim qurg'oqchiligi dunyoning turli hududlarida kuzatilgan, mil.av. II ming yillikning birinchi yarmida esa nisbiy iqlim barqarorligi davri bo'lgan.

Janubiy Markaziy Osiyoda olib borilgan so'nggi geomorfologik tadqiqotlar ham inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunishga katta hissa qo'shadi. Dehqonchilik asosan voha yoki tog'dan oquvchi daryo o'zanlarida, buloq bo'ylarida amalga oshirilgan. Murg'ob deltasida olib borilgan tadqiqotlariga ko'ra, voha iqlimi bronza davrida hozirgidan keskin farq qilgan [10, 39, 3415–3427]. Unga ko'ra, Murg'ob unumdor voha tekisligi hisoblangan va bronza davri manzilgohlari (Gonur va Taxirboy) yaqinidagi gidrologik tizim bronza davrining oxirigacha, ya'ni mil.av. II ming yillikning o'rtalariga qadar faol bo'lgan.

Afg'oniston va O'zbekistonning tarixiy hududlarida ham keng geomorfologik tadqiqotlar o'tkazilgan [11, 150–165]. Balx va Zarafshon daryolarining paleokanallarini tekshirish kanallarning haddan tashqari harakatchanligi, katta harakat diapazoni va katta miqdordagi o'zgarishlar bilan gidrografik tizimning kuchli dinamikasi aniqlangan. Afg'onistonning shimolida joylashgan Dashli, Janubiy O'zbekistonning Surxon-SHerobod hududlarida bronza davridan to so'nggi Ahamoniylar davrigacha o'lkalarning aholi tomonidan egallanishi doimiy suv mavjudligidan dalolat beradi.

Amudaryo, Sirdaryo hamda Orol dengizi qadimgi Okcning iqlimini mo'tadillashtirishda, shu hududda shakllangan ilk shaharlarning o'rtnashuvi va iqtisodiy taraqqiyotida, shu hududda shakllangan barcha sivilizatsiyalar iqtisodining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlashda, aholining geografik joylashuvi jarayonlarida bosh omil vazifasini bajargan.

Miloddan avvalgi II ming yillikda Amudaryo asosan Kaspiy dengiziga oqqan. Bu davrda iqlim nisbatan namroq bo'lib, daryo keng va kuchli oqimga ega bo'lgan. Arxeologik va geologik topilmalar orqali bu davrning Amudaryo va uning atrofidagi jamoalar uchun qanchalik muhim bo'lganini bilib olish mumkin. Daryo yo'nalishining o'zgarishi esa insoniyat tarixi davomida iqlim o'zgarishlari va sug'orish tizimlariga bog'liq holda sodir bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Oks va unga tutash Eron hududlarida olib borilgan paleoekologik, paleoklimatologik hamda geomorfologik tadqiqotlar eneolit va bronza davrlarida tabiiy muhitning dinamik o'zgarishlarga uchraganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari miloddan avvalgi III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlarida kuzatilgan qurg'oqchilik hamda gidrologik o'zgarishlar voha dehqonchiligi, aholi manzilgohlarining joylashuvi va xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Biroq iqlim o'zgarishlari barcha hududlarda bir xil

kechmagan bo'lib, ularning ta'siri tabiiy-geografik sharoit va mahalliy ekologik omillarga qarab turlicha namoyon bo'lgan.

Shuningdek, tadqiqot iqlim o'zgarishlarini qadimgi jamiyatlar inqirozining yagona omili sifatida baholash ilmiy jihatdan to'liq asoslanmaganligini ko'rsatadi. Aksincha, Oks sivilizatsiyasi misolida aholi yangi ekologik sharoitlarga moslashish, sug'orish tizimlarini takomillashtirish, xo'jalik shakllarini diversifikatsiya qilish va manzilgohlar tizimini qayta tashkil etish orqali tabiiy o'zgarishlarga moslasha olgan. Demak, iqlim omili ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lib, qadimgi jamiyatlar taraqqiyotini kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Beer R., Heiri O., & Tinner W. Vegetation history, fire history and lake development recorded for 6300 years by pollen, charcoal, loss on ignition and chironomids at a small lake in southern Kyrgyzstan (Alay Range, Central Asia). *The Holocene*, 2007. 17(7).
2. Cheng, H., Zhang, P. Z., Spötl, C., Edwards, R. L., Cai, Y. J., Zhang, D. Z., et al. (2012). The climatic cyclicity in semiarid-arid central Asia over the past 500,000 years. *Geophysical Research Letters*, 39. Lauterbach, S., Witt, R., Plessen, B., Dulski, P., Prasad, S., Mingram, J., et al. (2014). Climatic imprint of the mid-latitude Westerlies in the Central Tian Shan of Kyrgyzstan and teleconnections to North Atlantic climate variability during the last 6000 years. *The Holocene*, 24(8).
3. Cremaschi M. Palaeohydrography and middle holocene desertification in the Northern Fringe of the Murghab Delta. In A. Gubaev, G. A. Koshelenko, & M. Tosi (Eds.), *The archaeological map of the Murghab delta. Preliminary reports 1990–1995*. Roma: Istituto Italiano per l'Africa e l'Oriente. 1998.
4. Cremaschi M. Palaeohydrography and middle holocene desertification in the Northern Fringe of the Murghab Delta. In A. Gubaev, G. A. Koshelenko, & M. Tosi (Eds.), *The archaeological map of the Murghab delta. Preliminary reports 1990–1995*. Roma: Istituto Italiano per l'Africa e l'Oriente. 1998.
5. D'Alpoim Guedes J. A., Crabtree S. A., Bocinsky R. K., & Kohler T. A. Twenty-first century approaches to ancient problems: Climate and society. *PNAS*, 2016.
6. Dalfes H. N., Kukla G., & Weiss H. Third Millenium BC climate change and old world collapse. Berlin, Heidelberg: Springer. De Menocal, P. B. (2001). Cultural responses to climate change during the late holocene. *Science*, 1997.
7. De Pauw E. Principal biomes of Central Asia. In R. Lal, M. Suleimenov, B. A. Stewart, D. O. Hansen, & P. Doraiswamy (Eds.), *Climate change and terrestrial carbon sequestration in Central Asia*. London: 2007. Taylor&Francis.
8. Dearing J. Climate-human-environment interactions: Resolving our past. *Climate of the Past*, 2006. 2(2).
9. F. Chen, Z. Yu, M. Yang, E. Ito, S. Wang, D.B. Madsen et al. Holocene moisture evolution in arid central Asia and its out-of-phase relationship with Asian monsoon history. *Quaternary Science Reviews*, 2008. 27,

10. Fouache E., Besenval R., Cosandey C., Coussot C., Ghilardi M., Huot S., et al. Paleochannels of the Balkh river (northern Afghanistan) and human occupation since the Bronze Age period. *Journal of Archaeological Science*, 2012;
11. Fouache E., Rante R., Mirzaakhmedov D., Ragala R., Dupays M., Vella C., et al. The role of catastrophic floods generated by collapse of natural dams since the neolithic in the Oases of Bukhara and Qaraqöl: Preliminary results. *International Journal of Geohazards and Environment*, 2(3), 2016.
12. Francfort H.-P. L'âge du Bronze en Asie centrale. La civilisation de l'Oxus. *Anthropology of the Middle East*, 4(1), 91–111. Lamberg-Karlovsky, C. C. (2012). The Oxus civilization (aka: the Bactria-Margiana archaeological complex). *The Review of Archaeology*, 30, 2009.
13. H.M. Cullen, P.B de Menocal, S. Hemming, G. Hemming, F.H, Brown, T. Guiderson et al. Climate change and the collapse of the Akkadian Empire: Evidence from the deep sea. *Geology*, 2000. 28(4), 379–382.
14. Kakroodi A. A., Kroonenberg S. B., Hoogendoorn R. M., Mohammed Khani H., Yamani M., Ghassemi M. R., et al. Rapid Holocene sea-level changes along the Iranian Caspian coast. *Quaternary International*, 2012. 263
15. Kremenetski, C. V. (1997). The Late Holocene environmental and climate shift in Russia and surrounding lands. In H. N. Dalfes, G. Kukla, & H. Weiss (Eds.), *Third Millenium BC climate change and old world collapse* Berlin, Heidelberg: Springer.
16. Lewis R. A. Early irrigation in West Turkestan. *Annals of the Association of the American Geographers*, 1966. 56(3).
17. Masimov I. The study of the Bronze Age sites in the Lower Murghab. In P. L. Kohl (Ed.), *The Bronze Age civilization in Central Asia. Recent discoveries* . New York: M.E. Sharpe. 1981.
18. Mayewski P. A., Rohling E. E., Stager J. C., Karlén W., Maasch K. A., Meeker L. D., et al. Holocene climate variability. *Quaternary Research*, 62(3), 2004.
19. Mischke S., Rajabov I., Mustaeva N., Zhang C., Herzsuh U., Boomer I., et al. Modern hydrology and late Holocene history of Lake Karakul, Eastern Pamirs (Tajikistan): A reconnaissance study. *Palaeogeography, Palaeoclimatology, Palaeoecology*, 2010. 289.
20. Weiss H. *Megadrought and Collapse*. New York: Oxford University Press. 2017.
21. Y. Wang, X. Liu, U. Herzsuh. Asynchronous evolution of the Indian and East Asian Summer Monsoon indicated by Holocene moisture patterns in monsoonal central Asia. *EarthScience Reviews*, 2010. 103.
22. Виноградов А.В., Мамедов Е.Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустынь в голоцене // ИМКУ, 11. 1974.

Шайдуллаева Г. Ш.

PhD., доцент кафедры «Архивоведение и источниковедение»

Национальный университет Узбекистана

shaydullayeva87@list.ru

Рахмонкулова З. Б.

PhD., профессор кафедры «Архивоведение и источниковедение»

Национальный университет Узбекистана

zumradrahmankulova@gmail.com

ПРИРОДНЫЕ УСЛОВИЯ И КЛИМАТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ОКСА В ЭПОХУ ЭНЕОЛИТА И БРОНЗОВОГО ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье на основе палеоэкологических, геоморфологических и климатологических исследований анализируются природные условия и климатические изменения в Оксе в эпоху энеолита и бронзового века. Автор рассматривает влияние глобальных климатических процессов, происходивших в масштабах Евразии, в частности циклов увлажнения и аридизации в голоцене, на природную среду Окса низменностей и южных районов Центральной Азии. В исследовании освещаются гидрологические изменения в бассейнах рек Мургаб, Зарафшан и Балх, а также развитие оазисных цивилизаций и динамика расселения населения в контексте климатических факторов. Кроме того, на примере Окской цивилизации анализируется развитие земледельческих и кочевнических форм хозяйства в условиях засушливого климата. Автор, применяя комплексный подход, оценивает взаимосвязь между климатом, окружающей средой и социальными процессами, обосновывая, что климатические изменения не всегда приводят к кризисам, но могут способствовать адаптации и трансформации общественного развития.

Ключевые слова: Окс, эпоха энеолита, бронзовый век, палеоклимат, климатические изменения, голоцен, аридизация, динамика увлажнения, палеоэкология, геоморфология, гидрологические системы, Мургабский оазис, Окская цивилизация.

Shaydullayeva G. Sh.

PhD., associate professor at the department of «Archival and source studies»

National University of Uzbekistan

shaydullayeva87@list.ru

Rahmonkulova Z. B.

PhD., professor at the department of «Archival and source studies»

National University of Uzbekistan

zumradrahmankulova@gmail.com

NATURAL CONDITIONS AND CLIMATE CHANGES IN OXUS DURING THE ENEOLITHIC AND BRONZE AGES

ABSTRACT

The article analyzes the natural conditions and climate changes of the Oxus region during the Eneolithic and Bronze Ages on the basis of paleoecological, geomorphological, and climatological research. The author examines how global climatic processes that occurred across Eurasia, particularly the cycles of humidity and aridity during the Holocene, influenced the natural environment of the Oxus lowlands and the southern regions of Central Asia. The study considers hydrological transformations in the basins of the Murghab, Zarafshan, and Balkh rivers, as well as the development of oasis civilizations and the dynamics of human settlements in relation to climatic factors. In addition, the development of agricultural and pastoral economic systems under arid climatic conditions is analyzed through the example of the Oxus Civilization. The author evaluates the interrelationship between climate, environment, and social processes within a comprehensive analytical framework and argues that climate change does not necessarily lead to crises, but may also result in processes of adaptation and transformation in the development of human societies.

Keywords: Eneolithic period, Bronze Age, paleoclimate, climate change, Holocene, aridity, humidity dynamics, paleoecology, geomorphology, hydrological systems, Murghab oasis, Oxus Civilization.